



# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

**2024- YIL YANVAR-AVGUST**


# NAVOIY VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024- yilning 1- sentabr holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 225 tani tashkil etdi.


Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 374 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 30,5 % i Navoiy shahrida joylashgan.

## 2024- yil 1- sentabr holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda


### Hududlar kesimida




### Yillar kesimida qurilish tashkilotlari soni



Bino va inshootlar  
qurilishi



Fuqarolik obyektlarini  
qurish





Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Shuningdek, Karmana tumanda 216 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 17,6 %), Qiziltepa tumanida – 187 ta (15,3 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-avgust oylari uchun)

2024- yilning yanvar-avgust oylarida, Navoiy viloyatida jami 5 369,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 120,1 % ni tashkil etdi.



*Maʼlumot uchun:* Qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.


## 2024- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024- yilning yanvar-avgust oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 73,6 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 128,1 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 20,3 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 138,2 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi, esa 6,1 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 163,9 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.



## 2024- yilning yanvar-avgust oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 78,5 % i yoki 4 215,9 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1 615,8 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 38,3 % ni tashkil etdi.

38,3 %

1 615,8  
mlrd. soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1 597,9 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 37,9 % ni tashkil etdi.

37,9 %

1 597,9  
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 002,2 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 23,8 % ni tashkil etdi.

23,8 %

1 002,2  
mlrd. soʻm



## 2024- yilning yanvar-avgust oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2024- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Tomdi tumani (1 037,8 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (985,3 mlrd. so'm) Navoiy shahri (854,2 mlrd. so'm), va Zarafshon shahri 497,3 mlrd. so'm) qayd etildi.


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so'm
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>5 369,5</b>	<b>120,1</b>	<b>4 215,9</b>
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	854,2	102,6	615,4
Zarafshon	497,3	103,6	417,4
G'ozg'on	20,2	101,6	5,2
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	114,0	89,4	36,7
Qiziltepa	985,3	102,3	725,1
Navbahor	376,4	92,0	303,6
Karmana	458,3	100,9	330,9
Nurota	479,5	85,5	375,2
Tomdi	1 037,8	8,0 m	984,8
Uchquduq	152,2	127,6	134,9
Xatirchi	394,3	104,2	286,7



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

## 2024- yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **3 949,2 mlrd. so'm.**



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 36,4 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 22,2 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 21,0 % punktga kamayib, 34,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 17,7 % punktga kamayib, 29,1 % ni tashkil etdi.

# 2024- yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

*Maʼlumot uchun:*  
Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Tomdi tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 98,1 %), Uchquduq tumani (89,6 %) va Navbahor tumani (83,5 %) da kuzatildi.



Tomdi tumani  
**98,1 %**



Uchquduq tumani  
**89,6 %**




Navbahor tumani  
**83,5 %**



**2024- yilning yanvar-avgust oylarida fuqarolik  
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari  
Korxonalar turlari bo'yicha**

**Fuqarolik obyektlarini qurish - 1 091,0 mlrd. so'm.**




**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 51,0 % ni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 28,4 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 49,0 % (27,3 % punktga kamaydi).

# 2024- yilning yanvar-avgust oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



*Maʼlumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Navoiy shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 36,4 % i), Zarafshon shahar (29,1 %) va Karmana tumani (28,8 %)da kuzatildi.



**36,4 %**  
Navoiy shahar




**29,1 %**  
Zarafshon shahar



**28,8 %**  
Karmana tumani

## 2024- yilning yanvar-avgust oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- 329,3 mlrd. so'm.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga 100 % to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 31,6 % punktga ko'paydi.

# 2024- yilning yanvar-avgust oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

*Ma'lumot uchun:*  
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi G'ozg'on shahrida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 60,4 % i), Konimex tumani (43,9 %) va Navoiy shahar (12,7 %) kuzatildi.



**60,4 %**  
G'ozg'on shahri



**43,9 %**  
Konimex tumani



**12,7**  
Navoiy shahari


# 2024- yilning yanvar-avgust oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


### Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**2,3 m**


2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**92,6%**

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**94,0 %**



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 994,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,3 marotabani va ularning umumiy hajmdagi ulushi 18,1 % punktga ko'payib, 37,1 % ni tashkil etdi.


**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

## Hududlar kesimida mlrd. so'mda




# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 41,5 % i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 13,1 punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 92,6 % ni tashkil etgan holda 2 225,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

## Hududlar kesimida jamida ulishi % da




# 2024- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

## Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 21,4 % ni yoki 1 150,4 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 94,0 % ni tashkil etdi. Shundan 695,0 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 96,9 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 307,2 mlrd. soʻmni va 84,2 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 148,2 mlrd. soʻmni va 103,3 % ni tashkil etdi.



# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-avgust oyidagi hajm, (mlrd. so'mda)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 321,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 5 048,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,0 % va 94,0 % ni tashkil etdi.



## Ma'lumot uchun:

Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichlari Tomdi tumaniga (1037,8 mlrd.so'm), Qiziltepa tumaniga (985,3 mlrd.so'm), Navoiy shahriga (854,2 mlrd.so'm) va Zarafshon shaharda (497,3 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## ***Qurilish ishlari*** ***USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR***

***Qurilish ishlari*** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

***Kapital qurilishga pudrat shartnomasi*** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

***Qurilish tashkilotlari*** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

***Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi***

***Tel. (79) 223-54-73***